



## MIGRATSIYANI TARTIBGA SOLISH BO'YICHA XORIJ

### MAMLAKATLARI TAJRIBASI

O' z Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 309-guruh kursanti

*Beknazarov Jaloliddin Olimjon o'g'li*

**Annotatsiya.** Maqolada migratsiyani tartibga solish bo'yicha xorij mamlakatlari tajribasi, tartibi, huquqiy asoslari hamda migratsiya qoidalarini buzganlik ma'muriy va jinoiy javobgarlik qo'llanilishiga doir ayrim jihatlari normativ-huquqiy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** migratsiya, pasport, pasport tizimi, pasport viza tizimi, fuqarolik, ruxsatnoma xizmati, rasmiylashtirish, migratsion karta tizimi.

Pasport tizimini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri – bu boradagi ilg'or xorij tajribalarini o'rganish, umumlashtirish, tahlil qilish va milliy tizimga tatbiq etish hisoblanadi. Fransuz olimi M. Anselning fikriga ko'ra, xorijiy tajriba yuristlarga yangi g'oyalarni ochishga, o'z davlatining huquq tizimini yaxshiroq bilishga, boshqa tizimlar bilan qiyoslash orqali uning o'ziga xos jihatlari aniqlashga imkon beradi. Shu sababdan xorijiy mamlakatlarda migratsiyani tartibga solish masalalariga to'xtalib o'tsak.

Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh) – o'ziga xos pasport-viza tizimi shakllangan davlatlardan biri bo'lib, unda migratsion funksiyani quyidagi oltita: 1) Chegara qo'shinlari («Border enforcement»); 2) Viza nazorati va sayyohlik kuzatuv xizmati («Visa controls and travel screening»); 3) Axborot va funksional moslik tizimi («Information and interoperability of data systems»); 4) Huquqiy tartibot markazi («Workplace enforcement»); 5) Jinoiy sudlov va immigratsion nazorat tizimi («The intersection of the criminal justice system and immigration enforcement»); 6) Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni ushlab turish va chiqarib yuborish bo'limi («Detention and removal of noncitizens») amalga oshiradi[1]. Davlat tashqi havfsizligini ta'minlash – Bojxona va chegara havfsizligi byurosining asosiy vazifasi bo'lib, ushbu organ asosiy e'tiborni milliy xavfsizlikni ta'minlash va davlat chegaralarini nazorat qilishga qaratadi.

AQSh immigratsiya va fuqarolik xizmati («United States Citizenship and Immigration Services») (USCIS) – Ichki xavfsizlik xizmatining tarkibiy tuzilmasi bo‘lib (ilgari Adliya vazirligi tarkibida bo‘lgan), asosiy vazifasi migratsion murojaatlarni ko‘rib chiqish milliy xavfsizlikni ta‘minlashga ko‘maklashish hisoblanadi.

Mazkur xizmatning dunyo jarayonida bo‘ylab 223 ta filiali mavjud bo‘lib, unda 19.000 dan ortiq ishchi va xizmatchilar faoliyat olib boradi. Xizmatning tashkiliy tuzilishidagi o‘ziga xoslik shundaki, uning 1) mahalliy ofislari («Field Offices») – AQShda boshpana (qochoqlik uchun) berish bilan bog‘liq bo‘lmagan masalalarga doir ma‘lumotlarni qayta ishlaydi va muntazam ravishda taqdim etib borilishini ta‘minlaydi; 2) boshpana bo‘yicha murojaatlar bilan ishlash ofislari («Asylum Offices») – AQShda siyosiy qochoqlik taqdim etish bo‘yicha ma‘lumotlarni qayta ishlaydi va deportatsiya masalalarini ko‘rib chiqadi; 3) xalqaro bo‘limlar («International Offices») – AQSh fuqarolari va mamlakatda doimiy yashovchi (xorijiy) shaxslarga migratsiya masalalarida ko‘maklashadi; 4) ma‘muriy appelyatsiya bo‘limlari («Administrative Appeals Office») – shaxslarning bazi imtiyozlarini (masalan, bo‘lish muddatini qisqartirish) bekor qilish masalalarini hal etadi; 5) murojaatlar bilan ishlash markazlari («Application Support Centers») – ko‘rsatilayotgan xizmatlar bo‘yicha barmoq izlarini olish vazifalarini bajaradi; 6) xizmatlar markazi («Service Centers») va milliy imtiyozlar markazi («National Benefit Center») – mazkur masalalardagi murojaatlarni ko‘rib chiqadi[2]. AQSh qonunchiligiga ko‘ra, shaxs ma‘lum bir talablarga javob bergach, unga doimiy yashash huquqini beruvchi hujjat – doimiy yashovchi shaxs kartasi («United States Permanent Resident Card», (Form I-551) «Green Card» yoki «Alien Registration Card» deb yuritiladi) beriladi. Bunday shaxslar zimmasiga boshqa davlatlardan farqli ravishda quyidagi asosiy majburiyatlar yuklatiladi: 1) 18–26 yoshdagi erkaklarning qurolli kuchlar harbiy hisobidan o‘tish; 2) yashash joyini o‘zgartirgan hollarda 10 kun ichida migratsion xizmatni xabardor etish. Biroq immigratsion qonunchilik mamlakat hududiga ruhiy kasal, jinoyat sodir etgan va jamiyatga tashvish keltirishi mumkin bo‘lgan shaxslarning kirishini ta‘qiqlaydi.

AQShning MDH davlatlaridan pasport tizimini ta‘minlash borasidagi o‘ziga xos farqli jihati shundan iboratki, unda hech qanday «propiska» tizimi mavjud emas. Shu bilan





birga, aholiga yashash uchun ruxsat beruvchi ro'yxatga olish («registratsiya») tizimi ham joriy etilmagan. Faqatgina aholining elektron hisobi (bazasi) bir nechta davlat organlari tomonidan o'z maqsadlari yo'lida shakllantiriladi. Bu esa, fuqarolarning mamlakat bo'ylab erkin harakatlanish huquqini ta'minlaydi.

Mamlakat qonunchiligiga ko'ra fuqarolik ikki xil usulda: tug'ilish va naturalizatsiya (fuqarolikni qabul qilish) yo'li bilan olinishi mumkin. Pasport esa, faqatgina AQSh fuqarosi hisoblangan shaxslarga beriladi. AQSh fuqarosining pasporti – xorijga chiqish vaqtida davlat fuqaroligini tasdiqlaydigan asosiy hujjat bo'lib, AQSh davlat departamenti tomonidan rasmiylashtirib beriladi. Departamentning «Pasport xizmati boshqarmasi» («Passport Services Directorate») – bu boradagi faoliyat uchun mas'ul bo'lib, uning tarkibida 26 ta hududiy agentlik, 1 ta maxsus nashr, 2 ta pasport ishlab chiqarish, 1 ta milliy axborot markazi, shuningdek AQSh bo'ylab 9100 ta tarmoqdan iborat passport murojaatlarini qabul qilish bo'limlari faoliyati yo'lga qo'yilgan.

AQShda pasport olish mutlaqo ixtiyoriy jarayon bo'lib, hozirgi kunda aholining atigi 39% unga ega. Mazkur davlatda joriy etilgan ijobiy amaliyotlardan biri shuki, unda fuqaroning ehtiyojlariga qarab, pasport turli muddatlarda (darhol (shaxsning kasal yoki og'ir ahvoldaligida), 2-3 hafta ichida (ushbu muddatda sayohat qilish ehtiyoji bo'lsa), 6 hafta ichida (ehtiyoj kamroq bo'lganda), 6 haftadan ko'proq muddatda (ehtiyoj bo'lmaganda) beriladi. AQSh fuqarolarining bu boradagi ehtiyojlariga qaraydigan bo'lsak, 2016 yilda rasmiylashtirilgan pasportlar 2010 yilga nisbatan 20,8% ga (14.794.604 tadan 18.676.547 taga), shundan pasport kartalar esa, 14,7 % ga (1.556.392 tadan 2.110.555 taga) oshganligini ko'rish mumkin. Yevropa migratsion jarayonlar jadallashib borayotgan davlatlarni o'z ichiga olgan mintaqa bo'lib, unda ham aholi oqimini boshqarishning o'ziga xos tartibotlari mavjud. Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar o'rtasida o'rnatilgan («Shengen») pasportviza rejimi yagona tizimni o'z ichiga oladi.

Yevropaning klassik migratsion davlatlaridan biri Germaniya bo'lib, R. Oliger o'z tadqiqotlarida bu yerda xorijiy shaxslarning noqonuniy tarzda ishga joylashishi, yashashi uchun, shuningdek turist sifatida mamlakatga kirib kelishiga imkon borligi haqida to'xtalib

o'tadi. Shu bois, unda migratsiya oqimi kuchli. BMTning ma'lumotlariga ko'ra, Germaniya 2015 yilda importyor (migrantlarni qabul qiluvchi) davlatlar ichida 12 mln. migranti bilan ikkinchi (AQShdan keyin, 47 mln.) o'rinni egallagan.

Mamlakatda shaxsni tasdiqlovchi vositalar sifatida pasport va ID kartalardan foydalaniladi. Pasport shaxsning xorijga chiqish huquqini ta'minlaydi (YI davlatlari va ikki tomonlama vizasiz rejim o'rnatilgan davlatlar uchun talab etilmaydi).

GFRda aholini ro'yxatga olish (registratsiya) tizimi mavjud bo'lib, «Anmeldung» deb nomlanadi. Mazkur tartib aholi uchun soddalashtirilgan bo'lib, faqatgina axborot beruvchi (majburiy emas) xususiyatga ega, shuningdek mahalliy organlar tomonidan amalga oshiriladi. Registratsiyadan o'tish uchun asos uy-joy mulkdorining turar joy berishi haqidagi shartnomasi yoki tuman kengashi (raysovet)ning shaxsga turar joy taqdim etilganligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi hisoblanadi.

Mahalliy organlar tomonidan taqdim etilgan shaxsning murojaat etgan manzilda yashashi to'g'risidagi bir varoq qog'oz («in quarto») ma'lumotnoma –ro'yxatdan o'tganlik faktini tasdiqlaydi.

Mazkur ma'lumotnoma shaxsga boshqa qolgan hujjatlarni (haydovchilik guvohnomasi, pasport, ID va h.k.) olish huquqini beradi. Ro'yxatdan o'tish tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri mahalliy organlar uni rasmiylashtirishni rad etish huquqiga ega emas. Shuningdek registratsiya qilingan shaxs ma'lumotnoma asosida mamlakatning barcha joyida erkin harakatlanishi, turar joy va nafaqa ta'minoti olishi mumkin.

Respublikada yashash uchun xorijiy shaxslarning ruxsatnoma olishi talab etiladi. GFR qonunchiligi ruxsatnoma rasmiylashtirishda Yevropa Ittifoqi fuqarolari uchun boshqa shaxslarga nisbatan alohida imtiyoz yaratgan. Yevroittifoq fuqarolari xalqaro shartnomalar asosida beriladigan «maxsus ruxsatnoma» bilan mamlakatda erkin harakatlanish huquqiga egadir.

Germaniyada xorijiy shaxslarning huquqiy holati 1990 yil 9 iyuldagi qonun bilan belgilangan bo'lib, unga ko'ra respublikada bo'lish huquqini beruvchi ruxsatnomaning quyidagi 4 turi mavjud:



1) yashash uchun guvohnoma («Aufenthaltserlaubnis»). Qonunchilikka ko'ra mamlakatga birinchi marta kirgan shaxslarga, ma'lum muddatga beriladi (keyinchalik uning muddatini uzaytirish mumkin).

2) yashash huquqi («Aufenthaltberechtigung»). Qoidaga ko'ra uzoq vaqt davomida yashayotgan shaxslarga beriladi. Ushbu ruxsatnoma cheklanmagan muddatga, yashash hududi doirasi belgilanmagan va mamlakatdan chiqarib yuborilishdan himoyalangan holda taqdim etiladi.

3) bo'lish uchun cheklangan ruxsatnoma («Aufenthaltsbewilligung»). Ma'lum maqsadda (masalan, o'qishga), ma'lum muddatga kelgan shaxslar bunday ruxsatnoma olish huquqiga ega. Ruxsatnoma muddatining uzaytirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

4) majburiy muhojirlar uchun yashash huquqi («Aufenthaltsbefugnis»). Gumanitar yordam aksiyasi doirasida siyosiy sabablarga ko'ra kelgan shaxslarga beriladi[3].

Tahlil etilayotgan holatda ko'rish mumkinki, GFRda xorijiy shaxslar uchun mamlakatda bo'lishning o'ziga xos asoslari va shartlari mavjud bo'lib, ushbu talablar respublikaga keluvchi xorijliklarga alohida maqom taqdim etilishini nazarda tutadi. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, mazkur davlatda barcha turdagi immigrantlar sud himoyasi huquqiga ega.

Ikki yil muddatga hukumat tomonidan turar joy taqdim etilgan immigrantlarning mamlakatdan deport qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Migratsiya jarayonlarini tartibga solishda Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) tajribasi ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Davlat 2016 yil iyun oyida Xalqaro migratsiya tashkiloti (MOM) a'zosiga aylangan. Xitoyda aholi harakatini boshqarishning huquqiy asosi bo'lib 2006 yil 26 apreldagi «Pasport to'g'risida»gi va 2013 yil 1 iyuldagi «Kirish va chiqish to'g'risida»gi qonunlar hisoblanadi.

Xitoyda shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar sifatida pasport hamda ID kartalar tan olinadi. Pasport fuqaroning faqatgina xorijga chiqish huquqini ta'minlaydi. Uning umumfuqaro, diplomatik va xizmat pasportlari kabi turlari mavjud. Pasportning amal qilish muddati 5 yil (16 yoshdan kichiklar uchun esa 10 yil) bo'lib, uezd va undan yuqori ma'muriy hududiy



birliklardagi migratsiya bo'limlari tomonidan rasmiylashtiriladi.

ID karta barcha 16 yoshga to'lgan fuqarolar tomonidan olinishi majburiy bo'lgan hujjat bo'lib, shaxs tegishli yoshga to'lishidan kamida 3 oy oldin vakolatli organga murojaat qilishi shart. Qonunga asosan ushbu turdagi hujjatni rasmiylashtirish 2 oy ichida amalga oshiriladi (qiyoslaydigan bo'lsak O'zbekistonda mazkur muddat 15 kuni tashkil etadi)[4].

Qonun hujjatlari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, XXR migratsiya tizimi qat'iy qoidalarga asoslangan. Buning asosiy sababi migratsiya oqimining kuchliligidir. XXR Jamoat xavfsizligi vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2017 yilda mamlakatga kelib-ketuvchilar soni 598 mln.ni tashkil etgan (2016 yilga nisbatan 4.76 %ga oshgan).

Bu esa o'z navbatida davlatda kuchli chegara hamda pasport nazoratini amalga oshirishni talab etadi. Mazkur funktsiya Jamoat xavfsizligi vazirligi (migratsion bo'linmalari) zimmasiga yuklatilgan. Biroq ushbu tekshiruvlar elektron identifikatsiyaga asoslanadi.

Qonunchilik talablariga ko'ra, xorijiy shaxs (mehmonxonada yashovchilar bundan mustasno) yoki uni qabul qiluvchi 24 soat ichiga mahalliy immigratsion bo'linmalardan ro'yxatdan o'tishi shart.

(O'zbekistonda ushbu muddat 3 sutkani tashkil etadi). Qonunda belgilangan muddatda ro'yxatdan o'tmaslik 2000 yuangacha jarimaga sabab bo'ladi.

Shu bilan birga alohida e'tirofqa loyiqki, xorijiy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazishning avtomatlashtirilgan tizimi ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, aeroport, vokzal yoki aholi ko'p yashaydigan joylarda maxsus mashina (qurilma) yordamida bir necha daqiqa ichida ro'yxatga olish ishlari amalga oshiriladi. Mazkur tizim xorijiy shaxslarga bir qator qulayliklar taqdim etadi.

Mamlakatda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga kirish vizasi 180 kungacha bo'lgan muddatda berilishi mumkin. Biroq ularga kamida 30 kundan so'ng doimiy yashash guvohnomasi rasmiylashtiriladi. Mazkur vakolat uezd va undan yuqori ma'muriy hududiy birliklar (okrug, provinsiya) immigratsiya bo'limlari (O'zbekistonda ushbu masala vazirlik darajasida hal etiladi) tomonidan amalga oshiriladi. Bu esa o'z





navbatida xorijiy shaxslarni to'liq hamda o'z vaqtida hujjatlashtirish imkonini beradi. Doimiy yashash guvohnomasining amal qilish muddati 5 yil bo'lib, keyinchalik uni uzaytirish talab etiladi.

Xitoyda fuqarolarni ro'yxatga olishda qo'llaniladigan «hukou» deb nomlanuvchi alohida tizim mavjud bo'lib, u bir qator xususiyatlari bilan propiska tizimiga yaqin. Mazkur tizimning o'ziga xos xususiyati shundaki u xonadon daftarchasida («household registration» yoki «hukoubook») butun oila a'zolari (yashovchilar) to'g'risidagi ma'lumotlarni (tug'ilgan, vafot etgan, nikohdan o'tgan, ajrashgan vaqti, yashash joyini o'zgartirganligi va h.k.) jamlaydi. Xitoyda fuqarolarning uy-joy, transport vositalari, ta'lim olish va tibbiy xizmatdan foydalanish kabi huquqlari «hukou» tizimi orqali kafolatlanib, bu shaxsning tug'ilgan joyi bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, boshqa provinsiyadan kelgan fuqaro «hukou» (propiska)siz Pekin shahridan faqat bitta turar joy sotib olish huquqiga ega, yoki bir hududda ro'yxatdan o'tib boshqasida ta'lim olish fuqarolarga muayyan qiyinchilik tug'diradi. Hattoki Pekin, Shanxay va Guanchjou shaharlarida ro'yxatdan o'tish uchun ariza berish uchun maxsus shartlar asosida (bunda ariza beruvchining yoshi, malakasi, tajribasi va h.k.) saralash tizimi ham yo'lga qo'yilgan.

MDH doirasida pasport tizimini ta'minlash faoliyati samarali yo'lga qo'yilgan davlatlardan yana biri Rossiya Federatsiyasi hisoblanadi. Ushbu davlatda aholi migratsiyasi masalalari bo'yicha siyosatni amalga oshiruvchi davlat organi bir necha bor isloh etilgan. Rossiya Prezidentining 2016 yil 5 apreldagi 156- son farmoni asosida Migratsiya masalalari bosh boshqarmasi tashkil etilgan.

Rossiyaning migratsiya sohasidagi siyosatining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundan iboratki, mazkur munosabatlar davlatning uzoq muddatga mo'ljallangan konsepsiyasi(dasturi) asosida olib boriladi. Unda tahlil etilayotgan sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va mexanizmlari belgilab berilgan.

Davlat siyosati mazkur yo'nalishining joriy etilishiga sabab bo'lgan dastlabki normativ hujjat – Rossiya Prezidentining 1994 yil 9 avgustdagi 1668-son farmoni bo'lib, unda mazkur masalalarni tartibga solishdan ko'zlangan asosiy maqsad – milliy xavfsizlikni

ta'minlash, aholini maksimal darajada himoyalash, unga qulaylik va farovonlik yaratish deb ko'rsatilgan.

Mazkur davlatda aholini ro'yxatga olish tizimi ancha optimallashtirilgan bo'lib, fuqarolar vaqtincha yoki doimiy «registratsiya»dan o'tish asosida yashaydilar. Vaqtincha qayd etish 90 kundan ortiq bo'lmagan muddatga doimiy yashash manzillarini o'zgartirgan shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi. E'tiborga molik jihati shundaki, fuqarolarning vaqtincha ro'yxatdan o'tish hujjatlarini qabul qilish va vakolatli organlarga (registratsiya organlariga) taqdim etish vazifasi (mas'uliyati) xususiy yoki davlat ixtiyorida uy-joy fondlarining mansabdor shaxslari, uy-joy fondini mustaqil boshqaruvchi shaxslar yoki egalari, uy-joy qurilishi kooperativlarining vakolatli shaxslari zimmasiga yuklatilgan.

Shuningdek o'rnatilgan tartibotga ko'ra, Rossiya Federatsiyasining sub'ekti hisoblangan aholi yashash punktidagi bir turar joyda ro'yxatdan o'tib, aynan shu aholi yashash punktidagi yoki boshqa aholi punktidagi o'zga turar joyda ro'yxatdan o'tmasdan yashaganlik tegishli ravishda javobgarlikni yuzaga keltirmaydi (ushbu qoidalar Moskva shahri, Moskva viloyati, Sankt-Peterburg shahri, Leningrad viloyatiga ham tatbiq etilgan).

Rossiyada chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning bo'lishlari uchun ham o'ziga xos tartibot o'rnatilgan. 2006 yil 18 iyuldagi qonun hamda 2007 yil 15 yanvardagi hukumat qarori talablariga asosan xorijiy shaxslar davlat chegarasini kesib o'tishda (chegara yoki migratsion xizmatdan) vaqtinchalik bo'lish (yashash) huquqini beruvchi migratsion karta olishlari lozim.

Kartada xorijiy shaxs (fuqaroligi, yoshi, jinsi, kelish maqsadi) va uning mamlakatda bo'lish muddati haqidagi ma'lumotlar qayd etilib, ushbu hujjat kirish uchun viza talab etilmaydigan davlatlardan keluvchi shaxslarning mamlakatda vaqtincha bo'lish huquqini tasdiqlaydi. E'tiborli jihati, mazkur hujjat yuqoridagi funksiyalarni bajarishi bilan birga, vakolatli organlarga xorijiy shaxslarning vaqtincha bo'lishlarini nazorat qilishda ham ko'maklashadi.

Biroq migratsion karta bilan mamlakatga kirgan shaxslarning mamlakatda erkin harakatlanish huquqi davlat organlari tomonidan ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlariga



vaqtinchalik qayd etish belgisi qo'yilganidan keyingina yuzaga keladi. Shaxs bunday belgini turar joyiga kelgach 7 ish kuni ichida qo'ydirishi shart. Mazkur belgi shaxsga keyinchalik davlatda doimiy yashashga qolish (yashash guvohnomasini olish) yoki fuqarolik olish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Qonunchilikka ko'ra, mamlakatda bir yil yashagan quyidagi toifadagi shaxslar doimiy yashash guvohnomasini («vid na jitelstvo» – olish huquqiga ega: voyaga yetgan mehnatkashmigrantlar; yuqori malakali mutaxassislar; vasiylikka olingan muomalaga layoqatsiz xorijiy shaxslar; ixtiyoriy qaytish (ko'chirish) bo'yicha davlat dasturi a'zolari; Belarus fuqarolari; rus tili targ'ibotchilari; siyosiy qochoqlar; Rossiya fuqaroligidan chiqqan xorijiy shaxslar. So'ngi yillarda davlatda migratsiya jarayonlarini tartibga solishning muhim sharti sifatida – noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish, shuningdek mehnat migratsiyasini legallashtirish masalalari belgilandi. Buning uchun davlat migratsiyani legallashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etdi. Xususan, migrantlarga ishlash uchun ruxsatnoma («razresheniya na rabotu») va «patent» olish majburiyati ham yuklatildi.

Shuningdek 2015 yil boshidan mamlakatga kiruvchi shaxslar uchun rus tili, davlat tarixi va qonunchilikni bilish darajasi yuzasidan maxsus imtixon hamda daktiloskopik hisobga olish) jarayoni amalga kiritildi.

Moldovada ham migratsion jarayonlarni tartibga soluvchi yetarlicha normativ huquqiy baza va tashkiliy mexanizmlar shakllangan. Davlatda migratsiya masalalari bo'yicha maxsus vakolatli organ – 2006 yil 20 iyulda (IIV tizimida) tashkil etilgan «Migratsiya va qochoqlar byurosi» faoliyat yuritadi.

Qonun hujjatlari talablariga ko'ra, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning davlatga kirishlarini cheklashga faqatgina xorijiy shaxslar ishlari bo'yicha vakolatli organ («Migratsiya va qochoqlar byurosi» tarkibidagi) hamda davlat chegaralarini nazorat qilish organi («Chegara politsiyasi departamenti» tizimidagi) haqli.

Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar natijasida Moldovada migratsiya jarayonlarini nazorat qilish hamda muvofiqlashtirish uchun aholini hisobga olish davlat reestri tarkibiy qismi bo'lgan «Migratsiya va qochoqlar» avtomatlashtirilgan axborot-



integratsion tizimi (AIISMU) yo'lga qo'yilgan. Tizim migratsiya jarayonlarini monitoring qilish va boshqarish imkonini berishi bilan birga, xorijiy shaxslarning mamlakatda bo'lishini nazorat qilish, ularni soddalashtirilgan tartibda ro'yxatga olishga («yagona darcha» tamoyili asosida) ko'maklashadi.

Bundan tashqari, Moldovada bo'lish qoidalarining o'ziga xos tartiblari o'rnatilgan. Mazkur qoidalarni buzganlik ma'muriy va jinoiy javobgarlikni yuzaga keltiradi. Respublikada o'rnatilgan qoidalarni buzgan holda yashaganlik uchun qo'shimcha ravishda keyinchalik mamlakatga kirish huquqini cheklash choralari ham qo'llaniladi.

Ma'muriy tartibda chiqarib yuborish va deportatsiyani ta'minlash jarayonidagi o'ziga xos tajriba shundan iboratki, bu yerda ushbu maqsadda aksariyat mamlakatlarda mavjud bo'lmagan «vaqtinchalik joylashtirish markazlari» tashkil etilgan. Mazkur tuzilmalarning asosiy vazifalari ushlab turilgan, davlatiga qaytarib berilayotgan (readmissiya), ma'muriy tartibda chiqarib yuborilayotgan yoki deportatsiya qilinayotgan shaxslarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga ko'maklashishdir.

Markaz xorijiy shaxslar ishlari bo'yicha vakolatli organning axborot bazasiga yuborish uchun joylashtirilgan shaxslarning ro'yxatini yuritadi, ularni daktiloskopik hisobga oladi, rasmga tushiradi, shaxsiy ko'rikdan o'tkazadi hamda tibbiy xizmat ko'rsatadi.

Moldovada yashovchi xorijiy shaxslarga yaratilgan muhim imkoniyatlardan yana biri bu – vaqtincha bo'lish muddati bilan bog'liq huquqni taqdim etish bo'lib, mazkur muddat 5 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi (minimal muddati 1 yil). Buning uchun esa, arizachi kirish vizasi muddati tugashidan 30 kun oldin vakolatli organlarga murojaat qilishi lozim (Migratsiya xizmatining Bels yoki Komratdagi hududiy bo'linmalari yagona darcha tamoyili asosida ham shaxsni hujjatlashtiradi). Moldovada xorijiy shaxslarning doimiy yashashga qolishining o'ziga xos tartibi mavjud. Qoidaga ko'ra, yashash guvohnomasini («vid na jitelstvo») olishning muhim shartlari sifatida shaxsning doimiy yashash manbasiga ega bo'lishi (yetarlicha mablag'), davlat tilini «qoniqarli» darajada bilishi, respublika Konstitutsiyasi normalaridan xabardor bo'lishi kabilar belgilangan. Xorijiy shaxslarning maxsus komissiyalar tomonidan bilim





darajasiga beriladigan baho natijalari tegishli ma'lumotnomada o'z aksini topadi va mazkur hujjat imtihon topshirganlikni tasdiqlovchi fakt bo'lib xizmat qiladi[5].

Qozog'iston Respublikasida xorijiy shaxslarni nazorat qilish migratsion karta tizimi yordamida amalga oshiriladi. Ushbu hujjat davlat chegaralari orqali o'tkazish punktlarida – Milliy xavfsizlik qo'mitasi chegara xizmati (PS KNB); doimiy yoki vaqtincha yashash (turar) joyiga kelgan xorijiy shaxslarga – ichki ishlar organlari; tranzit tartibda o'tishda – havo (dengiz) transportida samolyot (kema) ekipajlari, temir yo'l transportida poezd brigadalari a'zolari, xalqaro avtobus transportlarida ularning haydovchilari tomonidan rasmiylashtiriladi.

Qozog'istonda aholini ro'yxatga olishning «registratsiya» tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, ma'muriy qonunchilikka ko'ra (492- m.), fuqarolarning 10 kundan 1 oyga qadar doimiy yoki vaqtinchalik ro'yxatdan o'tmasdan yashashi ogohlantirishga, 1 oydan ortiq muddatga ro'yxatsiz yashashi esa, jarimaga (eng kam ish haqining 7 baravari miqdorida) sabab bo'ladi. Xorijiy shaxslarning 10 sutka ichida ro'yxatdan o'tmaganligi eng kam ish haqining 10 baravari miqdoridagi jarima solinishiga sabab bo'ladi[6].

Xorijiy shaxslarni mamlakatdan ma'muriy tarzda chiqarib yuborishga vakolatli davlat organlari va sud haqli. O'zbekistondan farqli ravishda xorijiy shaxslarning fuqarolar bilan tuzgan nikohlari haqiqiy emas deb topilib, mamlakatda doimiy yashashlari uchun boshqa asos qolmaganda ham shaxs mamlakatdan chiqarib yuborilishi mumkin. Belgilangan muddatda ixtiyoriy ravishda chiqib ketishdan bo'yin tovlagan shaxslar prokuror sanksiyasi asosida ichki ishlar organlari tomonidan majburiy tartibda chiqarib yuboriladi. Chiqarib yuborilgan

shaxslar qaror qabul qilingan kundan boshlab, 5 yil davomida davlatga kirish huquqiga ega emas (qiyoslaydigan bo'lsak, mazkur muddat O'zbekistonda 3 yil). Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>;
2. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>;
3. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>;



4. <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennostimigratsionnoy-politiki-sovremennogo-kitaya>;
5. <https://www.eurasianresearch.org/publication/emigrant-moldovaand-the-changing-concept-of-migration/?lang=ru>
6. <https://www.gov.kz/memleket/entities/qriim/activities/53>

